


Kitob-albom taqdimoti o'tkazildi

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida "Abu Ali ibn Sino asarlari qo'lyozmalari Turkiya kutubxonalarida" kitob-albomi taqdimoti o'tkazildi. Unda Institut rahbariyati, ilmiy xodimlari hamda Turkiyaning Seljuk universiteti professorlari Mustafa Demirci hamda Fahri Ozpilavci ishtirok etdilar.





“Abu Ali ibn Sino asarlari qo’lyozmalari Turkiya kutubxonalarida” kitob-albom ikki qismdan iborat bo’lib, birinchi qismi kirish maqola va yetti bo’limni o’z ichiga olgan. Ulardagi Ibn Sino hayoti va ilmiy ijodiga doir maqolalar o’zbek va turk olimlari tomonidan yozilgan.



Kitob-albomning ikkinchi qismida buyuk faylasuf Abu Ali ibn Sinoning Turkiya kutubxona va muzeylarida saqlanayotgan qo’lyozma asarlarining tavsiflari taqdim etiladi. Olimning asarlari mavzu bo’yicha tarjimai hol, tabobat, falsafa, mantiq, ilohiyot, adabiyot, tasavvuf, axloq va tafsir ilmiga ajratildi.

Ibn Sino asarlariga o'z davridayoq va undan keyin ham qiziqish katta bo'lgan. Shu sababli Musulmon sharqning turli mintaqalaridan yetishib chiqqan mashhur olim va tabiblar Ibn Sino asarlariga sharhlar yozib, qisqartmalar tuzganlar. Keyinchalik bu qisqartmalarga sharhlar ham yozilgan.

Kitob-albomga Ibn Sino asarlariga bo'lgan e'tibor va ehtiyojni ko'rsatish maqsadida Ibn Sino asarlariga yozilgan sharhlar, qisqartmalar, shuningdek, ularga bitilgan sharhlar ham kiritilgan.